

# **O‘ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI**

**№ 4 (16/2) 2024  
Maxsus son**



**“TURLI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA ORGANIK  
QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI  
YETISHTIRISHDA INNOVATSION  
TEKNOLOGIYALARNI QO‘LLASHNING  
DOLZARBLIGI”**

# O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

Сувонова Ю.С. Экологические методы повышения плодородия почв в Узбекистане.....	161
Mingboyeva D.O. Tuproqlarni texnogen buzilishida turli ixtisoslikdagi sanoat korxonalarini ahamiyati.....	164
Mingboyeva D.O. Sanoat korxonalarini atrofida tarqalgan tuproqlarning ekologik holati.....	165
Диёрова М.Х., Элмуродова С.Д. Суғориладиган кумли чўл тупроқларининг физик хусусиятлари.....	167
Бобоноров Р. Такирли тупроқларининг эволюцияси, морфогенетик тузилиши ва тупроқ хоссаларини яхшилаш йўллари.....	170
Hakimova N.X. Qurvantayev R. Yarashova M.Y. Buxoro viloyatining shimolida tarqalgan sug'oriladigan tuproqlarning umumiy fizikaviy xossalari.....	171
Диёрова М., Холиқова С., Мамадиёров Ф. Тупроқ хоссаларига ўсимлик копланлари миқдорининг таъсирини илмий асослаш.....	173
Boboyev F.F., G'oyibnazarova M.U. Ertachi muddatlarda ekish uchun ekilayotgan bug'doy navining biologik xususiyatlari va tuproq unumdorligiga qarab urug'ni ekish meyori.....	178
Тожиёва Б.Б. Қашқадарё воҳаси суғориладиган тупроқларининг ҳозирги ҳолати.....	180
Abdrahmanov T., Jabbarov Z.A., Mahammadiyev S.Q., Fayzullayev O., Abdullayev SH.Z., Yagmurova D.A. Orol dengizi qurigan tubida hosil bo'lgan tuproq-gruntlarini mexanik xossalari.....	182
Faxrutdinova M.F., Imomov O.N. Degratsiya uchragan tuproqlarni sifat ko'rsatkichlari.....	186
Mamurova N.E., Zakirova S.H., Sotiboldiyeva G.T., Abduraximova M.A. Soz tuproqlarda bug'doyning davr va vaha navlarini parvarishlashda maqbul sug'orish rejimini aniqlash (Farg'ona viloyati misolida).....	188
Zakirova S., Abduraximova X., Rajavaliyeva Z.M. Och tusli bo'z tuproqlarda malina yetishtirish agroteknikasi.....	190
Ostanaqulova G.N., Zakirova S. X., Sariqo'rg'on arxeologik tepaligining shakllanishi va ayrim morfologik belgilari..	192
Koraev A., Abdurakhmonov N. Rainfed light gray soils of the gissar range and their fertility.....	195

## 3-sho'ba

### Qishloq xo'jalik ekinlari seleksiyasi, urug'chiligi va o'simliklarni kasallik-zararkunandalardan himoyalash sohasida innovatsiyalar

Бобаева А.С. Через уруғларининг унувчанлик хусусиятлари.....	197
Рабимов А. Чўл озукабон ўсимликлари интродукцияси, селекцияси ва уруғчилигининг табиий яйловлар ҳосилдорлигини оширишдаги аҳамияти.....	199
Turg'unov J. R. Achchiq qovun ( <i>momordica charantia</i> l) ning xromosomalar taxlili.....	201
Кодиров А.А. Маҳаллий дефолиантларни ингичка толали гўза навининг I-терим салмоғига таъсири.....	203
G'ulomov J.Z., Sherqulova J.P., Eshonqulov E.Y. Bodring mozaikasi virusi (CMV) va uning belgilari haqida ma'lumot.....	204
Юнусов С., Балласов А. Бодринг нав намуналарини коллекциясини ўрганиш.....	207
Yunusov S.A., Sherimov D.Sh. Qoraqolpog'iston sharoitida sarimsoq piyoz nav namunalarini turli xil muddatlarda ekib o'rganish.....	209
Salomova S.S., Turabekova D.B., Khujamshukurov N.A. Importance of consumed insects.....	210
Sherqulova J.P. Qashqadaryo viloyati hududlarida tarqalgan ayrim dorivor ksilotrof makromitsetlar.....	213
Begimqulova S.M., Nurillayev I.X. No'xatning bazi navlarining qashqadaryo viloyati tuproq iqlim sharoitida o'sishi, rivojlanishi, kasalliklari va ularga qarshi kurash.....	216
Нишонова А.Я., Бурiev Х.Ч. Пиёз ( <i>Allium Cepa</i> ) уруғларининг потенциал ва ҳақиқий маҳсулдорлиги.....	217
Shomurodov Sh.Ch., Xoliqova M.M., Xushvaqtova M.J. Zararli xasva bioekologiyasi, zarari va unga qarshi kurash choralari.....	220
Сарманов Ш.Ш., Аминова Г.Х. Арпанинг нав ва тизмаларини биомитирик кўрсаткичларини ҳосилдорлига таъсири.....	220
Рауров В.Н. Shovqinga qarshi kurashda o'simliklardan foydalanishning ahamiyati.....	223
Кодиров А.А. Гўза эканидан сифатли ҳосил олишда юкори самарали "олтин куз" препаратининг аҳамияти.....	225
Аминова Д.Х., Тайлакова Ф.С. Ўсимликларни химоя қилишда замонавий йўллар билан химоя қилиш афзалликлар.....	226
Аминова Д.Х. Гўза майдонларини кўсак қуртидан биологик усулда химоя қилиш самарадорлигини оширишнинг самарали йўллари.....	229
Saidova G.A., Ostonaqulov T.E. Buxoro viloyati kuchsiz sho'rlangan yerlari uchun pomidor moslanuvchan navlari... Ostonaqulov T.E., Saidova G.A. Kuchsiz sho'rlangan yerlarda pomidor istiqbolli nav-duragaylarini sug'orish tartibi va o'g'itlash me'yorlari.....	231
Diyorova M.X., Meyliyeva H.SH., Ostonaqulov T.E. Bodring duragaylari takroriy ekin sifatida ekilganda tup qalinligi va o'g'itlash me'yorini belgilash.....	236
Shamsiyev A.A., Ismoyilov A.I., Amonturdiyev I.X., Tursunov G.S., Ostonaqulov T.E. Batatning yangi "New Samarkand" navi ta'rifi, mahsuldorlik va hosildorlik ko'rsatkichlari.....	239
Amirov X. S., Ostonaqulov T.E. Qovun yozgi navlari o'sish, rivojlanish va hosildorligining sug'orish tartibotlariga bog'liqligi.....	241
Lukova I.M., Ostonaqulov T.E., Amanturdiyev I.X. Ertagi va ikkihosilli ekin sifatida kartoshka yangi navlar urug'bop hosili va ko'payish koeffitsiyentining ekish usullariga bog'liqligi.....	244
Kurvantayev R., Geldiyev O'A. Lalmi tipik bo'z tuproqlarga ishlov bermasdan ekish (no till) texnologiyasini fizikaviy xossalari ta'siri.....	247
Kurvantayev R., Geldiyev O'A. Lalmi tipik bo'z tuproqlarga ishlov bermasdan ekish (no till) texnologiyasini fizikaviy xossalari ta'siri.....	250

вертикал қатламларда суғориш сувлари билан сувда эрувчан тузлар қуйи қатламларга ювилиб ўтади, карбонат ва гипсли қатламларнинг жойланиш чуқурлиги ҳам ортади; иккинчидан, суғориш жараёнида тупроқларнинг юқори қисмида ирригация сувлари билан олиб келинган лойқали заррачалар ҳамда дехкончилик даврида инсонлар томонидан ўғит сифатида солинган ноанъанавий ўғитлар – эски иморат қолдиқлари, суғориш шахобчаларидан чиққан қумли-лойқали ёғизиклар ва бошқалар таъсирида бир хил механик таркибли ҳамда бир хил бўз бироз мала товланувчи антропоген-агроирригацион қатлам вужудга келади ва уни қалинлиги суғориш даври, сувларнинг лойқаланиш

даражасига боғлиқ бўлади.

Ҳозирги вақтда бу қатламнинг қалинлиги ўзлаштириш муддати 200-300 йидан ошган ҳудудларда 70-90 см ни ташкил қилади. Бошқа ҳудудларда эса бу қатлам 25-40 см дан ошмайди. Хулоса қилиб айтиш мумкинки инсонларнинг дехкончилик фаолияти натижасида тупроқларнинг эволюцион шаклланишида ўзига хос морфолитогенетик қатламлар вужудга келади. Инсоннинг дехкончилик фаолияти даврида амалга оширилган барча агротехник агромегиоратив тадбирлари албатта, у ёки бу тупроқларнинг умумдорлигини оширишга қаратилганлигини талаб қилади.

## АДАБИЁТЛАР

1. Неуструев С.С. "Генезис и география." "Наука." 1960. С. 328.
2. Разанов А.Н. "Сероземь Средней Азии" М., 1951. С. 459.
3. Турсунов Л. "Тупроқ физикаси". Тошкент, "Мехнат", 1988. 222-б.
4. Турсунов Л. Почвенная условия орошаемых земель западной части Узбекистана. Ташкент «ФАН» 1981 г. Стр-224.
5. Турсунов Л, Бобоноров Р. Қарши чўли бўз-ўтлоқи тупроқларининг ҳозирги мелиоратив ҳолати ва уни саҳролаштириш жараёнида ўзгариши. Илмий Амалий анжуман маърузалар тўплами. Тошкент 2002 й. 51-55 бетлар.
6. Умаров М.У. Физические свойства почв районов нового и перспективного орошения Узбекистана. Ташкент «ФАН» 1974 г. Стр-282.

UO'K: 631.43

<sup>1</sup>Hakimova N.X. <sup>2</sup>Qurvantayev R. <sup>3</sup>Yarashova M.Y.

<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti, <sup>2</sup>Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti, <sup>3</sup>TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti.

## BUXORO VILOYATINING SHIMOLIDA TARQALGAN SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING UMUMIY FIZIKAVIY XOSSALARI

**Annotatsiya.** Maqolada Buxoro viloyatining shimolida tarqalgan yangidan sug'oriladigan va o'zlashtirilgan qumli cho'l, eskidan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial, tuproq tiplarining umumiy fizikaviy xossalari antropogen omillar ta'sirida hozirgi davrdagi holati haqidagi ma'lumotlar izohlangan. Tarqalgan tuproq tiplarining solishtirma og'irligi kam o'zgaruvchan miqdor jihatidan bir biriga yaqin bo'lib, tuproq kesmasi bo'ylab 2,54-2,73 g/sm<sup>3</sup> oralig'ida tebranadi. Antropogen omillar ta'sirida yangidan sug'oriladigan, o'zlashtirilgan qumli cho'l va eskidan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial, tuproqlar haydov osti qatlami kuchli zichlashgan 1,42-1,71 g/sm<sup>3</sup>. Umumiy g'ovaklik qiymati tuproq hajmiga nisbatan 50,9-52,3% ni tashkil qilib, o'rta kesimi sohasida g'ovaklik qiymati birmuncha kamayishi kuzatilib (47,9-48,5%), chuqur qatlamda 46,3% ni tashkil qiladi.

**Kalit so'zlar:** eskidan, yangidan sug'oriladigan tuproqlar, solishtirma va hajm og'irligi, g'ovaklik, o'zlashtirilgan qumli cho'l, eskidan sug'oriladigan o'tloqi allyuvial.

**Абстрактный.** В статье изложены сведения о современном состоянии общих физических свойств новоорошаемых и мелиорированных песчано-пустынных, староорошаемых лугово-аллювиальных, типов почв под воздействием антропогенных факторов. Удельный вес рассеянных типов почв близок друг к другу по менее изменчивой величине и колеблется в пределах 2,54-2,73 г/см<sup>3</sup> по разрезу почвы. Под воздействием антропогенных факторов новоорошаемой песчаной пустыни и староорошаемой луговой аллювиальной подпочвенный слой сильно уплотняется на 1,42-1,71 г/см<sup>3</sup>. Общая величина пористости составляет 50,9-52,3% по отношению к объему почвы, в области среднего отдела величина пористости несколько снижается (47,9-48,5%), а в глубоком слое - 46,3%.

**Ключевые слова:** старые, новоорошаемые почвы, удельный вес и объем, пористость, развитая песчаная пустыня, староорошаемый луговой аллювиал.

**Annotation.** In the article, the information about the current state of the general physical properties of newly irrigated and reclaimed sandy desert, old irrigated meadow alluvial, soil types under the influence of anthropogenic factors is explained in the article. The specific weight of the scattered soil types is close to each other in terms of less variable quantity and fluctuates in the range of 2.54-2.73 g/cm<sup>3</sup> along the soil section. Under the influence of anthropogenic factors, newly irrigated sandy desert and old irrigated meadow alluvial, sub-soil layer is strongly densified by 1.42-1.71 g/cm<sup>3</sup>. The total porosity value is 50.9-52.3% compared to the volume of the soil, the porosity value is slightly reduced in the area of the middle section (47.9-48.5%), and 46.3% in the deep layer. organizes.

**Key words:** old, newly irrigated soils, specific gravity and volume, porosity, developed sandy desert, old irrigated grassland alluvial.

**Kirish.** O'zbekistonda tarqalgan tuproqlarning turli xossa-xususiyatlari va meliorativ hamda unumdorlik ko'rsatkichlarini

tuproq hosil bo'lish, jumladan kimyoviy, fizikaviy va mikrobiologik jarayonlari ta'sirida o'zgarishi bir qator olimlar

tomonidan tadqiq qilingan bo‘lib, ularning ishlarida tuproqlarning genezisi va melioratsiyasiga oid umumiy muammolar o‘rganilgan, shu bilan birga tuproqlardagi geokimyoviy jarayonlar, suv hamda tuzlar harakatining alohida mexanizmlari va umumiy qonuniyatlari ochib berilgan. Artiqova X.[1; 47-51-s.], Kovda V.A, [4; 415-s.], Kurvantayev R. va boshqalar [3; 45-s., 4; 120-b., 5; 235-239-s.], Hakimova N.H. [68-71-p.] va boshqalar.

Tuproqlarning umumiy fizikaviy xossalari–tuproqda kechadigan jarayonlarning mohiyatini ifodalash bilan birga ularning unumdorligi yoki degradatsiyaga uchraganlik darajasini baholashda eng muhim mezonni hisoblanadi. Ma‘lumki, tuproqning umumiy fizikaviy xossalarini o‘rganish yuqori samarali va oqilona dehqonchilikni ilmiy asoslarini ishlab chiqishda katta ahamiyatga egadir, chunki tuproqning fizikaviy xossalari tuproq unumdorligiga, degradatsiya jarayonlarini ro‘y berishida, biologik faolliklarning borishida va qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori hosil olishga katta ta‘sir ko‘rsatadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot ob‘yekti sifatida Buxoro viloyatining shimolida keng tarqalgan yangidan sug‘oriladigan va o‘zlashtirilgan qumli cho‘l, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlar tanlab olingan. Tanlangan tuproq tiplariga kesmalar qo‘yilib, morfologik tuzilishi tavsiflangan. Genetik

qatlamlardan olingan tuproq namunalaridan quyidagi laboratoriya va dala tadqiqotlari olib borildi: Hajm og‘irligi genetik qatlamlar bo‘yicha silindr usulida, solishtirma og‘irlik piknometrus usulida, g‘ovaklik hisoblash orqali aniqlandi.

**Tadqiqot natijalari.** O‘simliklarning bir me‘yorda rivojlanishi va ularning hosildorligini oshishida, uning unumdorligini belgilashda, tuproqning zichligi ya‘ni hajm og‘irligi, muhim ahamiyatga ega. Tuproqning hajm og‘irligi tuproq qattiq fazasining solishtirma og‘irlikiga nisbatan juda o‘zgaruvchan bo‘lib, asosan, agregatlarning miqdori, ularning zichlashish va suvga chidamlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

G‘ijduvon tumani Zarafshon massivi “Baxtishod Amon Zamini” fermer xo‘jaligining va Shofirkon tumani Bobur massivi “Mirzo Jamshid” fermer xo‘jaligi eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarining mexanik tarkibi o‘rta pastki qatlamlari og‘ir tarkibli bo‘lib, haydalma qatlam zichligi 1,39-1,45 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil qilsa, haydalma osti qatlami kuchli (1,46-1,58 g/sm<sup>3</sup>) zichlashganligini ko‘rsatadi. Tuproq solishtirma og‘irligi birlamchi va ikkilamchi minerallar hamda organik, organo-mineral moddalardan tashkil topganligi uchun ularning solishtirma og‘irligi undagi minerallar turi va miqdoriga bog‘liq ravishda o‘zgarib boradi.

Jadval

**Tuproqlarning umumiy fizikaviy xossalari**

Kesma raqami va tuproq nomi	Qatlam chuqurligi, sm	Hajm og‘irligi, g/sm <sup>3</sup>	Solishtirma og‘irligi, g/sm <sup>3</sup>	G‘ovakligi, %
Buxoro viloyati Shofirkon tumani Buxoro massivi, “Azim Shofirkon yulduzi” fermer xo‘jaligi, yangidan sug‘oriladigan qumli cho‘l tuproqlar.	0-26	1,46	2,65	41
	26-41	1,56	2,62	41
	41-71	1,58	2,66	46
	71-110	1,42	2,68	48
	110-160	1,42	2,62	46
Buxoro viloyati Osiyo massivi “Mirzo Jamshid” f/x sug‘orila digan qumli cho‘l tuproqlar.	0-21	1,68	2,66	37
	21-44	1,71	2,64	36
	44-66	1,68	2,65	37
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani Zarafshon massivi “Baxtishod Amon Zamini” fermer xo‘jaligi eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlar.	0-33	1,45	2,70	47
	33-48	1,46	2,73	47
	48-74	1,39	2,66	48
	74-105	1,33	2,69	54
	105-132	1,40	2,67	48
	132-170	1,45	2,65	46
Buxoro viloyati Shofirkon tumani Bobur massivi “Mirzo Jamshid” f/x eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlari	0-38	1,39	2,73	44
	38-53	1,58	2,71	42
	53-85	1,55	2,68	51
	85-115	1,45	2,56	56
	115-156	1,48	2,62	44

Tuproqlarning umumiy g‘ovakligi – eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanib, u o‘simliklarning o‘shishi va rivojlanishi uchun katta ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki, o‘simlik ildizlarining namlik va havo bilan ta‘minlanishi aynan tuproq g‘ovakligiga bog‘liqdir. Shuningdek, tuproqning suv-fizikaviy xususiyatlarini shakllanishida undagi g‘ovakliklarning shakli muhim ahamiyatga ega.

Tuproqning yuqori qatlamlarida g‘ovaklik 36-56% ni, pastki qatlamlarda esa 36-41 % gacha pasayishi kuzatiladi. Ko‘pgina qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun maqbul g‘ovaklik taxminan 50 % ni tashkil etadi. Agar uning qiymati 40 % dan kam bo‘lsa, u holda o‘simlik ildizlarining tuproqqa kirishiga to‘sqinlik qiladi.

R.Qurvantayev [5; 45 s.] tuproq haydalma qatlamining umumiy g‘ovakligini quyidagi baholagan:

Juda yuqori (baland)-hajm og‘irligi 1,0-1,1 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil qilgan o‘ta g‘ovak to‘q tusli, bo‘z, chirindili, tipik bo‘z va gidromorf tuproqlarning ustki qatlamiga xos. Aeratsiya darajasi 30 % dan ortiq.

Yuqori (baland) – hajm og‘irligi 1,0-1,1 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil etadigan madaniylashgan to‘q tusli va tipik bo‘z tuproqlarning haydalma qatlami uchun xos. Aeratsiya daraja 30-25 % o‘rtasida bo‘ladi.

Yaxshi – hajm og‘irligi 1,1-1,2 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil qilgan hamda g‘o‘za va boshqa ekinlar o‘shishi va rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan bo‘z tuproqlar mintaqasi sug‘oriladigan yerlarining haydalma qatlamiga xos va aeratsiya me‘yori 25-20 % bo‘ladi.

O‘rtacha - hajm og‘irligi 1,2-1,3 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil qilgan hamda g‘o‘za va boshqa ekinlar o‘shishi va rivojlanishi uchun qulay bo‘lgan cho‘l mintaqasida tarqalgan sug‘oriladigan qumli va qumloq tuproqlarning haydalma qatlami uchun xos. Aeratsiya darajasi 20 %.

Qoniqarli-hajm og‘irligi 1,3-1,4 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil qilgan sho‘rlanmagan va kam o‘rtacha sho‘rlangan o‘tloqi, o‘tloqi-sozli, taqirli tuproqlarning haydalma qatlami uchun xos. Aeratsiya darajasi 20-18 % tashkil qiladi

Qoniqarsiz-madaniy o‘simliklar uchun qoniqarsiz, asosan

# O'ZBEKISTON AGRAR FANI XABARNOMASI

hajm og'irligi  $1,5 \text{ g/sm}^3$  dan yuqori bo'lgan zich gipslashgan, arzikli va haydov osti qatlamiga xos. Aeratsiya darajasi 15 % dan kam (bunday tuproqlarda faol bo'lmagan ingichka yoriqlar ko'p).

**Xulosa.** Buxoro viloyatining shimolida tarqalgan tuproq tiplarining umumiy fizikaviy xossalari bo'yicha farq qiladi. Sug'oriladigan qumli cho'l tuproqlarining pastki katmlari sug'orish va tuproqqa ishlov beruvchi agregatlar va tuproqni fizik yetilmagan holda ishlov birilishi ta'sirida kuchli zichlashganligi

( $1,47-1,71 \text{ g/sm}^3$ ) kuzatiladi. Xududda tarqalgan tuproq tiplarining minerologik tarkibi bir-biriga yaqin bo'lganli hamda gumus miqdorini kamligi tufayli Tuproqning yuqori qatlamlarida g'ovaklik 50-56% ni, pastki qatlamlarda esa 42-44 % gacha pasayishi kuzatiladi. Tuproqlarning solishtirma og'irligi bo'yicha keskin farq kuzatilmaydi, uning ko'rsatkichi tuproq kesmasi bo'y lab  $2,54-2,73 \text{ g/sm}^3$  oralig'ida o'zgarib turishi kuzatiladi.

## ADABYOTLAR

1. Artikova X.T. Buxoro vohasi sug'oriladigan o'tloqi alluvial tuproqlarining umumiy fizik va ayrim suv-fizik xossalari, ularning ahamiyati / Jurnal "O'zMU xabarlari" - №3/1. 2018. - B. 47-51.

2. Ковда В.А. Проблемы опустынивания и засоления почв аридных регионов мира. - М.: "Наука". 2008. - 415 с.

3. Курвантаев Р. Оптимизация и регулирование агрофизического состояния орошаемых почв пустынной зоны Узбекистана: Автореф. дисс. док.с.х. наук. -Ташкент. 2000. - 45 с.

4. Kurvantayev R., Hakimova N.X. Zarafshon vohasi degradatsiyaga uchragan sug'oriladigan tuproqlarining holati. Monografiya: "Durdona" – 2023. – 120 b.

5. Kurvantaev R., Musurmanov A.A., Turgunov M.M. Current state of water-physical properties in soils of Mirzachul oasis. // The proceedings of the international Congress on «Soil Science in International Year of Soils» Article book. 19-23 October - Sochi.2015. - P. 235-239.

6. Hakimova N., Kurvantaev R. Evolution of reflux soils of the midrange of the valley Zerafshan / ANNALI DLTALIA Scientific Journal of Italy. - Rim, 2020, VOL.2. (4). - P. 68-71.

7. Kurvantaev R., Hakimova N.X., Vafoev B. / Chemical properties of Zarafshon lower and middle flow soils, E3S web of conferences 389, 04014 (2023) UESF-2023.

УДК: 631.92/581.1

Динорова М., Қариш давлат университети Агрокимё ва экология кафедраси доценти

Холиқова С., Қариш давлат университети Агрокимё ва экология кафедраси мустақил тадқиқотчиси.

Мамадиёров Ф. Қариш давлат университети Агрокимё ва экология кафедраси ўқитувчиси., к/х.ф.фд.:

## ТУПРОҚ ХОССАЛАРИГА ЎСИМЛИК ҚОПЛАМЛАРИ МИҚДОРНИНГ ТАЪСИРИНИ ИЛМИЙ АСОСЛАШ

**Аннотация:** мақолада Қашқадарё вилояти Гузор массивидаги GTL заводи ва Шўртан газ мажмуаси тупроқ қопламида тарқалган оч тусли бўз тупроқлар хоссаларининг шаклланишида баҳорги мавсумларда ўсиб-ривожланидиган ўсимликларнинг аҳамияти ҳамда уларнинг хоссаларига таъсир этадиган ўсимликлар хосил қиладиган илдиз қолдиқлари миқдори аниқланганлиги таъкидланган

**Калит сўзлар:** тупроқ, zichlik, solishtirma ogirlik, govaklik, mavsum, ўсимлик, илдиз, статистика, қуриқ, корреляция.

**Аннотация:** В статье отмечается значение растений, произрастающих в весенний период, в формировании свойств легких сероземов, рассеянных в почвенном покрове завода СЖТ и Шуртанского газового комплекса в Гузорском массиве Кашкадарьинской области и определено количество корневых остатков, вырабатываемых растениями, влияющих на их свойства.

**Ключевые слова:** почва, плотность, удельный вес, пористость, время года, растение, корень, статистика, сухая, корреляция.

**Annotation:** In the article, it is noted that the importance of plants growing in the spring season in the formation of the properties of light gray soils scattered in the soil cover of the GTL plant and Shu'rtan gas complex in the Guzor massif of Kashkadarya region and the amount of root residues produced by plants that affect their properties are determined.

**Key words:** soil, density, specific gravity, porosity, season, plant, root, statistics, dry, correlation.

**Қириш.** Бугунги кунда «дунёда глобал исини, курғоқчилик бўлишига сабаб атмосферада  $\text{CO}_2$  газини ортганлигидир. Маълумотларга кўра, 2016-2023 йилда  $+0,7^\circ\text{C}$  га органлиги кузатилган. Сўнги 5 йилликда атмосфера харорати  $+1,5^\circ\text{C}$  га кўтарилиб, дунёдаги 7,4 млрд. аҳолининг озик-овқат маҳсулотларига бўлган талабини кондиришда бир канча муаммолар юзага келмоқда. Жумладан, суғориладиган майдонлар глобал исинида сув тақчиллиги ҳамда жадаллик билан ишлов бериш натижасида деградацияга учраб чўлланиш ортиб бормоқда». Шу сабабли аҳолини озик-овқат маҳсулотларига бўлган талабини

кондиришда чўл ва ярим чўл худудларида тарқалган тупроқ қопламларини тупроқ хоссаларини илмий жиҳатдан чуқур ўрганиш ва уларнинг ривожланишини статистик математик жиҳатдан асослаш орқали иқлим шароитларининг таъсирига боғлиқлигини илмий жиҳатда ёритиш долзарб вазибалардан бири ҳисобланади.

Дунёда ҳар бир тупроқ-иқлим шароитларини тадқиқ қилиниб аҳоли учун турли хил озик-овқат маҳсулотларини етиштириш борасида инновацион технологилар ишлаб чиқаришда тупроқ-иқлим шароитларини илмий жиҳатда ўрганиш асосида агробиотехнологик тадбирлар ишлаб